



**BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO‘LISHI VA  
RIVOJLANISH BOSQICHLARI**

**TURSUNOVA MAHFUZA RO’ZIYEVNA**

*Denov tuman 6-umumiyl o‘rta ta’lim  
maktabining matematika  
fanı o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola buxgalteriya hisobining ahamiyati, asosiy prinsiplari va rivojlanish tarixiga bag‘ishlangan. Buxgalteriya hisobi iqtisodiy tizimning ajralmas qismidir va moliyaviy ma'lumotlarni aniq va tizimli tarzda to‘plashni ta’minlaydi. Maqolada buxgalteriya hisobining ikki yoqlama yozuv tamoyili, uning qadimiy davrlaridan hozirgi kungacha qanday o‘zgarishi va zamонавија texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** buxgalteriya hisobi, moliyaviy ma'lumotlar, naturalistik davr, qiymat davri, ikki yoqlama yozuv, luka pacholi, hisob tizimi

**Abstract:** This article is devoted to the importance, basic principles and history of development of accounting. Accounting is an integral part of the economic system and provides accurate and systematic collection of financial information. The article presents the principle of double-entry accounting, how it has changed from ancient times to the present day and its integration with modern technologies.

**Keywords:** accounting, financial information, naturalistic period, value period, double-entry bookkeeping, luca pacolli, accounting system

### **Kirish**

Buxgalteriya hisobi tashkilotlar uchun moliyaviy holatni baholash, sarf-xarajatlarni nazorat qilish va strategik qarorlarni qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqola bu sohani yanada chuqurroq o‘rganishga va uning kelajakda rivojlanish imkoniyatlarini kashf etishga yordam beradi. Maqola moliya



mutaxassislari, tadbirkorlar va universitet talabalari uchun qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

Buxgalteriya hisobining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Ma'lumki, barcha mamlakatlarda buxgalteriya hisobini to'g'ri va aniq yuritish maqsadida buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi tamoyillar va qoidalar ishlab chiqilgan. Masalan, AQSh da mamlakatda barcha kompaniyalar uchun qo'llanilishi zarur bo'lgan "Buxgalteriya hisobining umum qabul qilingan qoidalari" (GAAP) qabul qilingan bo'lsa, Germaniya, Fransiya va Yaponiya kabi mamlakatlarda birmnecha qonun hujjatlari asosida buxgalteriya hisobi tartibga solinadi. Jumladan, respublikamizda 1996 yildan beri "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonun va 24 ta milliy standartlar amal qilib turibdi. Global integrallashgan iqtisodiyot sharoitida turli mamlakat xo'jalik sub'ektlari, banklari va boshqa moliyaviy korporatsiyalar o'rtaida iqtisodiy aloqalar o'rnatiladi. Bu esa, xalqaro hamkorlikdagi sub'ektlar bir-biriga zid kelmaydigan bir xil tamoyil va qoidalar asosida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash zarurligini taqozo qildi yoki yagona "biznes tili"ga muxtojlik seziladi. Natijada, dunyoda barcha mamlakatlar uchun buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (BHXS) yaratildi va rivojlanmoqda. Xech shubxasiz aytish mumkinki, BHXSning yaratilishi ham buxgalteriya hisobi nazariyasini takomillashiviga katta turtki bo'ldi. Yuqorida qayd etilgan, har bir mamlakatdagi mavjud turli iqtisodiy va huquqiy sharoitlar, shu bilan birga XX asrdan boshlab global iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va jahon mamlakatlarining tobaro o'ziga qamrab olayotganligi buxgaltekriya hisobiga ta'sir etuvchi ob'ektiv asoslar bo'lib xizmat qiladi. Sub'ekтив omillarga yangilikka o'ch olimlarning shuxratparastlik illatlari hamda ayrim chalasavod olimlarning yengil-elpi ijodi sababchidir. O'zgalarni mensimaslik, o'zidan oldingi yaratilgan konsepsiyalarni tan olmaslik, ayrim hollarda esa masalaga yuzaki qarash natijasida hammaning ensasini qotiradigan mazmunsiz nazariyalar ham yaratilganligi ma'lum. Albatta, ushbu kitobda buxgalteriya hisobining predmeti bilan bog'liq barcha muammolarni muhokama qilib bo'lmaydi. Shuning uchun, biz ko'pchilik olimlar tomonidan e'tirof etilgan va mazkur ilmiy izlanishga molik bo'lgan ayrim ta'riflar ustida to'xtab o'tamiz. Yuqorida qayd etib o'tildiki, buxgalteriya hisobiga, to o'tgan asrning



yarmigacha hisobchilik, ya'ni ma'lumotlarni ro'yxatga olish yo'li bilan yozuvlarda qayd etib borish jarayoni sifatida qarab kelingan. Ayrim hollarda esa, uni "hisob yuritish" yoki "hisobvaraqlarni yuritish" usuli sifatida talqin etishgan. Yuqorid mazkur fanning otasi sifatida e'tirof etilgan Luko Pacholi o'zining "Hisobvaraqlar va yozuvlar traktati" asarida aynan hisobchilik, ya'ni xo'jalik operatsiyalarini ikkiyoqlama yozuv orqali qayd etish usuli bayon qilingan edi. Buyuk olimning "hisobchilik, bu rioya etgan holda tartibli ish yuritishdir", - degan so'zları tarixga muhrlanib qoldi. Shuningdek frunsuz olimi 1910 yilda G. Forning "Buxgalteriya hisobi, xo'jalik yurituvchi shaxslar tomonidan bajarilgan xo'jalik operatsiyalarini ro'yxatga olish usuli to'g'risidagi fandir", - deb bergen ta'rifi mumtoz tushunchaga aylandi. Hatto, amerikaliklar XX asrning boshida buxgalteriya hisobini "ma'lumotlarni yozuvlarda qayd etish san'ati" deb ta'riflashgan. Demak, o'tgan asrning boshida buxgalteriya hisobining mohiyatini tushuntirishda uni xo'jalik operatsiyalarini qayd etish usuli sifatida qarashgan. Shuning uchun ham olimlar bu ta'rifni "uslubiy yondoshuv" ta'rifi deb baholashadi. "Uslubiy yondoshuv" ta'rifi qanchalik mashhur bo'lmasin, ijtimoiy hayot rivojlanishi, ayniqsa biznesga oid munosabatlarining chuqurlashuvi buxgalteriya hisobining mohiyatiga nisbatan yanada muzmundor qarashlarni vujudga keltirdi. Xususan, XX asr yarimiga kelib buxgalteriya hisobi nimalarning hisobini yuritishi lozim yoki uning ma'lumotlari nimalarni o'zida aks ettiradi, degan savollar iqtisodiy adabiyotlarda dolzarb mavzuga aylandi. Bu mavzudagi ilmiy baxslar, buxgalteriya hisobi ma'lumotlari xo'jalik sub'ektining moliyaviy holatini (ahvolini) ifodalaydi degan xulosalar bilan o'z yechimini topgan. Buning yorqin dalili sifatida fransuz iqtisodchisi S. Furast'ening "Buxgalteriya hisobi xo'jalik sub'ekti mulki qiymatini pulda baholash va uning kapitali miqdorini aniqlashga yo'naltirilgan zamonaviy fan soxasidir", degan so'zlarini keltirish o'rinli bo'lardi. Moliyaviy holatga urg'u berilgan tarzda buxgalteriya hisobining predmetini aniqlashga bo'lgan bunday yo'nalish iqtisodiy adabiyotlarda "mazmuniy yondoshuv" nomini oldi va ko'pchilik olimlar tomonidan e'tirof etildi. Xatto, jahonda eng ommaviy o'quv qo'llanmasi mualliflari bo'lgan amerikalik olimlar B. Nidlz, X. Anderson va D. Kolduellar shunga yaqin quyidagicha



ta'rif berishgan: "Buxgalteriya hisobi ma'lum xo'jalik sub'ekti to'g'risidagi moliyaviy ma'lumotlarni o'lchab, qayta ishlab taqdim qiluvchi tizimdir". Bu sohadagi keyingi ilmiy izlanishlar buxgalteriya hisobi predmetini yanada kengroq yoritishga qaratildi. Tabiiyki, buxgalteriya hisobi nimalarning hisobini yuritishi lozim savoliga javob topilganidan so'ng, bu ma'lumotlar kimlarga taqdim qilinadi, nima maqsadda foydalilanadi degan masalalar o'z yechimini topishi zarur edi. Olimlar "mazmuniy yondoshuv"ni rivojlantirib, unga buxgalteriya hisobining maqadini ham qo'shish lozim deb topishdi.

Buxgalteriya bu ancha yillardan beri mavjud bo'lgan tushuncha hisoblanadi. Buxgalteriya hisobi fan sifatida qachon shakllanganligi shu soha vakillariniqiziqtirishi tayin. Odatda bu borada uchta javobni uchratishimiz mumkin mumkin. Birinchisi: buxgalteriya hisobi 3000 yil oldin odamlar jarayonlarni ro'yxatga olishni (natural shaklda) boshlagan paytdan boshlab; Ikkinchisi: 500 yil oldin italyan matematigi Luka Pacholining (1445-1515 y.) "Schytolar va yozuvlar haqida traktat" kitobining nashrdan chiqishi bilan yuzaga kelgan; Uchinchisi: 100 yil oldin, buxgalteriya hisobi sohasida birinchi nazariy qarashlar paydo bo'lgan davrdan yuzaga kelgan. Shu sababli, bu tortishuvlarning haligacha yakuniga etilmagan. Biz uning ilk ko'rinishlari qachon yuzaga kelganligi haqida taxminlar asosidagina xulosa chiqarishimiz mumkin. Buxgalteriya hisobi fan sifatida shakllanishidagi evolyutsion jarayonning sistematik tuzilishini quyida ko'rishimiz mumkin:

1-davr. Naturalistik davr (ushbu davr eramizdan oldingi 4000 yildan bizning eraning 500 yiliga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga olishi olimlar tomonidan belgilangan). Ya'ni, bu ilk xo'jalik jarayonlarining ro'yxatga olinishi bilan xarakterlanadi. Xo'jalik jarayonlarining ro'yxatga olinishi esa yangi bir jarayonnniyuzaga keltirganki bu jarayon qiymat davriga o'tishni belgilab bergen.

2-davr. Qiymat davri. (bizning eraning 500 yilidan 1300 yiliga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi) Ushbu davr pulni o'ylab topilishi va muamola vositasiga aylanishi bilan belgilanadi. Shu paytga qadar xo'jalik jarayonlari naturada o'lchanan bo'lsa endilikda unga parallel ravishda qiymatda ham baholashga o'tildi. Qiymat



ifodasini yuzaga chiqishi buxgalteriya hisobida patrimonal va kameral hisobni shakllantirdi. patrimonal hisobda mulkka egalik birinchi o‘riga qo‘yilsa, kameral hisobda uning kirimga olinishi yoki hisobdan chiqarilishi xarakterlangan. Pul patrimonal hisobda qiymat o‘lchovi vositasi sifatida, komeral hisobda to‘lov vositasi sifatida qaraladigan bo‘ldi.

3-davr. Ikki yoqlama yozuv davri. (Ushbu davr 1300-1850 yillarni qamrab oladi.) Bu davrda xo‘jalik jarayonlarining ommalashuvi, murakkablashuviga mos ravishda oddiy yozuvdan ikki yoqlama yozuvga o‘tish zaruriyatining yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi. Hisob yozuvlariga katta urg‘u berilganligi ham ushbu davrga xos. Bu davrda buxgalteriya hisobida dastlabki schyotlar rejasি ishlatila boshlandi. Buxgalteriyaning zamonaviy tizimining kelib chiqishi Luka Pacholiga borib taqaladi Vinetsiya, Italiya XV asrning ohiri. Pacholi aytdiki “biror iqtisodiy hodisa aniq bir tizim orqali tartibli va ishonchli qilib ma’lumotlarni buxgalteriya kitobiga yozilishi qayd qilinishi kerak”. Buxgalteriyaga bog‘liq bo‘lgan ko‘plab qonun qoidalari evolyutsiya jarayoni davomida rivojlantirildi. Bular buxgalteriya prinsiplari yoki konsepsiyalari deb ataladi. Bu yerda har doim buxgalteriya amaliyotini mukammal shaklga keltirishga harakat qilib kelingan. Biznes doirasining kengayishi bilan bir qatorda buxgalteriyaning ham ahamiyati ortib bormoqda. Misol uchun, yangi buxgalteriya darsliklarining rivojlanishi korxonalarning qo‘shilishi va muvaffaqiyatga erishishi uchun, xalqaro ayrboshlash foydasi yoki zarari, internet biznes va boshqalar. Har bir mamlakatda turli xil buxgalteriya jamoalari buxgalteriya amaliyotini zamonaviylashtirish va ilg‘orlashtirishga mas’uldirlar. Misol uchun , AQShda, Amerika davlat buxgalterlarini tasdiqlash instituti sezilarli ahamiyatga ega. Shunga o‘xshash, Hindiston va Malayziyada, Hindiston buxgalterlar instituti va Malayziya buxgalterlar instituti ham mana shunday vazifasi mavjud.

4-davr. Nazariy-amaliy davr (ushbu davr 1850-1900 yillar oralig‘ini egallaydi). Bu davrga kelib xo‘jalik jaryonlariga huquqiy maqom shakllandı. Natijada jaryonga ham iqtisodiy jihatdan, ham huquqiy jihatdan yondashuvlar belgilandi. Schyotlar rejasining differentsiyasi boshlandi, shakllariga ahamiyat qaratildi, balans, foya, tannarx, ishlab chiqarish va muomala xarajatlari tushunchalari shakllandı.



Buxgalteriya hisobi butun reallikni baholashni qamrab oldi. Buxgalteriya hisobi butun jarayonni suratga oladigan, rengometriya qiladigan elementga aylandi. Yunon sivilizatsiyasi davrida Yevropada kompleks davlat boshqaruvi tizimi ruhoniylar tomonidan amalga oshirilgan. Verner Sombart siyosiy iqtisodchi, 1863-yilda tug‘ilgan va 1941- yilda Germaniyada vafot etgan. U Berlin, Rim, Piza universitetlarida huquq, iqtisod, tarix va falsafa fanlaridan o‘qib, oxir-oqibat Berlinda iqtisodiyot professori bo‘lgan. Uning asosiy ishi “Zamonaviy Kapitalismus” XX asr kapitalizmini o‘zida aks ettirgan. Sombart o‘sha davr buxgalteriya yozuvlarini tahlil qilib, uni uch tasodifiy omilni o‘rganib kapitalistik korxona o‘sishi uchun muhim deb hisoblagan:

1. Qonun.
2. Biznes boshqarish usullari.
3. Bozor.

Qonun kompaniya uchun asos beradi, yuridik shaxs sifatida kapitalistik korxona, va bozor moliyaviy shaxs bo‘lishga vositalar taqdim etadi. Ish boshqaruvi texnikasi hisobiga asosan Sombart oldinga buxgalteriya haqida to‘rt tushuntirishlarni qo‘ydi:

1. Biznes bo‘ylab kapitalining oqimini taqdim etish. Kapital hisobidan foyda yoki zarar hisobiga o‘tkazish va yana qaytib kapital hisobiga boylikni shakllantirish. Bu orqali buxgalteriyada “boylik” nazariyasi yaratiladi.
2. Tadbirkorlar uchun cheklovlarni mavjudligi. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy ratsionalizm rivojiga hissa qo‘shgan.
3. Buxgalteriya hisobi ishini muvaffaqiyatli amalga oshirish tizimli biznesni amalga oshirishni kafolatlaydi.
4. Buxgalteriyadan boshqaruv hisobini farqli jihatlarini anglab olish va kapitalni shaxsiy mulk sifatida qaramaslik va qoidalar asosida buxgalteriya yozuvlarini to‘g‘ri aks ettirish. Bu yozuv 1500-1750 yilda Angliyada yuritilgan va ikkiyoqlama yozuv deb yuritilgan. Bunday yozuv orqali buxgalteriyada uchraydigan tartibsizliklar, noo‘rin chiqib ketishlar nazorat ostiga olingan.



5-davr. Ilmiy davr. (Ushbu davr 1900 – 1950 yillarni o‘z ichiga oladi). Bu davrda asosiy e’tibor mahsulot ishlab chiqarish xarajatlariga va mahsulot tannarxini to‘g‘ri aniqlash, xarajatlarning jadalligi bilan ajralib turadi. Kalkulyatsiyalash tartibi ham ushbu davrga xos. Mahsulotning ishlab chiqarish va to‘liq tannarxini aniqlash, smeta qiymati tushunchasi, direkt kost, standart kost usullari, to‘g‘ri va egri xarajatlar ushbu davrning eng muammoli masalasiga aylangan. Boshqaruvning har bitta funktsiyasini ajratish, soliqqa tortish masalalarida buxgalteriya hisobini o‘ta va aniq tizimi yaratildi. Buxgalteriya hisobini ishlab chiqarish hisobiga alohida urg‘u berildi. Boshqaruv va moliyaviy hisobning tarkiblanishiga o‘tish davri boshlandi.

6-davr. Hozirgi davrni o‘z ichiga oladi. Bu davr 1950- yildan hozirgi kunga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Xalqaro standartlarning qabul qilinishi bilan xarakterli bo‘lgan ushbu davr buxgalteriya hisobining rivojlanishida o‘ziga xos revolyutsiya davri bo‘ldi deyish mumkin. Buxgalteriya hisobi, mulk egalari, jamoat, davlat manfaatlar bo‘yicha o‘zining aniq javoblariga ega bo‘ldi.

## Xulosa

Buxgalteriya hisobi iqtisodiyotning muhim poydevori bo‘lib, tashkilotlar faoliyatining moliyaviy jihatlarini nazorat qilish va hisobga olishga qaratilgan. U iqtisodiy ma'lumotlarni aniq va tizimli tarzda to‘plash, saqlash va tahlil qilish jarayonidir. Buxgalteriya hisobi ikki yoqlama yozuv tamoyiliga asoslangan bo‘lib, bu har qanday operatsiyani ikkita muvofiq yozuv tarzida aks ettirishni talab etadi. Buxgalteriyaning dastlabki shakllari miloddan avvalgi qadimiy tsivilizatsiyalarda paydo bo‘lgan, ammo bugungi kunda buxgalteriya hisobi yanada murakkab tizimga aylandi. Bu sohada ilg‘or texnologiyalar va axborot tizimlari faol qo‘llanilmoqda, bu esa moliyaviy hisobotlar va tahlil jarayonlarini tezlashtirishga yordam beradi. Buxgalteriya hisobi kompaniyaning moliyaviy holatini baholash, sarf-xarajatlarni nazorat qilish va kelajakdagi strategik qarorlarni qabul qilishda asosiy rol o‘ynaydi. Bu, shuningdek, yangi bozorlarni o‘rganish va investitsiyalarning rentabelligini tahlil qilishda foydali hisoblanadi. Shunday qilib, buxgalteriya hisobi nafaqat moliyaviy



ma'lumotlarni taqdim etadi, balki tashkilotning barqaror rivojlanishiga ham zamin yaratadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdullaev YO. va boshq. Iqtisodiy tahlil.-T.: Mehnat. 2001. 256 b.
2. Akramov E.A. Korxonalarining moliyaviy holati tahlili.-T.: Moliya. 2003.-208b.
3. Vahobov. A., Ibrohimov A. Moliyaviy tahlil. Darslik.-T.: Sharq. 2002.-201 b.49
4. Bobojonov O. Moliyaviy hisob. Darslik. Buxgalteriya hisobining xalqaro (IAS), Amerika (GAAP) va milliy (BXMS) standartlariga asosan o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilgan. - T.: Moliya, 2002.-342 b.
5. Gadoev E. va boshq. Yillik hisobot-2008. Toshkent: NORMA, 2009.- 476 b